

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11177995>

TA'LIM MUASSASALARDAGI ZO'RAVONLIK VA UNI BARTARAF ETISH USULLARI

Matniyazova Asalxan Davranbekovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani 33-son
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Tajimova Nodira Omonboyevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani
25-son umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda farzandlarimizni har tomonlama mukammal dunyoviy bilimlarni qamrab oluvchi yosh avlod qilib tarbiyalashda oilada ota-ona bilan bir qatorda ta'lim muassalarda pedagoglarning ham o'rni beqiyosdir. Biz zo'ravonliksiz maktab ta'rafdorimiz. Chunki zo'ravonlik bo'lgan joyda hech qachon yuksalish bo'lmaydi. Zo'ravonlik natijasida ruhiy qiyinchiliklar yuzaga kelib, farzandlarimizga salbiy ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun ta'lim muassasasi psixologi korreksion tadbirlarni o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar bilan birgalikda olib borishi va doim nazorat qilib borishi kerak.

Kalit so'zlar: *Agressivlik, korreksiya, muloqot, ko'nikma, pozitiv, zo'ravonlik, tazyiq, qo'rquv, diskriminatsiya, profilaktika, o'smir, oila.*

Maktablarda zo'ravonlikning oldini olish va uni bartaraf qilish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Shuning uchun maktabda agressivlikni bartaraf etish, ya'ni korreksiya qilishni uning sabablari, kelib chiqishini aniqlashdan boshlash lozim. Korreksion uslub har bir bolaga aloxida yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Agressiyani bartaraf etishda kayfiyatni ko'taruvchi trening mashg'ulotlari

foydalanish lozim. Yaniy sinfda guruh bo‘lib ishlash, o‘quvchini ijtimoiy muhitga qo‘shilishga o‘rgatish kabilar kiradi.

- boshqa shaxs xolatini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
- autorelaksatsiyani o‘rgatish yaniy turli hil vaziyatlarda o‘zini o‘nglab olib, bosiqlik bilan munosabatda bo‘lish lozimligin tushuntirish;
- muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- shaxsiy yutuqlari asosida o‘zini ijobiy xususiyatlarini tasavvur qilishni shakllantirish;
- atrofdagilarga nisbatan iliq munosabatni shakllantirish;
- zo‘riqlashlarni bartaraf qilishni o‘rgatish.

Ta‘qib muammosini bartaraf etishga ahd qilgan inson bu ishni oxiriga yetkazishi juda muhim. U muntazam qanday yordam zarurligini, qanday qiyinchiliklar bo‘layotganligini, nimani uddasidan chiqish imkoniyati borligi xaqida so‘rab turish kerak. “Ta‘qib hisoblagachi” o‘rnatish, bu qandaydir idish yoki doska bo‘lishi mumkin. Unga har kuni kimga nisbatan taqib sodir etilgan bo‘lsa uning tomonidan bu idishga toshcha yoki belgilarning soniga qarab bu kuni bunday holat nechta sodir etilganligi, hafta yakunida esa avvalgi haftalar bilan solishtiriladi. Buning maqsadi shundaki, guruh doimo nazoratda bo‘ladi va bu illatdan qutulishda birgalikda harakat qiladilar.

Zo‘ravonlik kabi yomon illatlarning oqibatlarini umr bo‘yi bo‘lib, insonning hissiy va kognitiv rivojlanish, jismoniy va ruhiy salomatlik hamda xulq-atvoriga qattiq ta‘sir qiladi. Zo‘ravonlik o‘quvchilarning ta‘lim muassasalariga qo‘shilishini zaiflashtiradi. Ularga qo‘rquv va ishonchsizlik hissini tug‘diradi. Bu o‘z navbatida ta‘lim maqsadlariga va xavfsiz, do‘stona muhitda o‘qish huquqiga zid keladi.

Shunga ko‘ra, ta‘lim muassasasidagi zo‘ravonlik, o‘z hududida yoki o‘z xonasida, yoinki mashg‘ulotlar paytida, tanaffuslarda, ta‘lim muassasasiga borishda va qaytishda, shunga o‘xshash boshqa joylarda jumladan, ta‘lim muassasasi tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarda maxsus rejalashtirilgan, yoki o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkor harakatlar deb ta‘riflanishi mumkin.

Ta'lim muassasasida o'quvchilar, shuningdek, millati, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, dini, nogironligi, rivojlanish yoki xulq-atvori xususiyatlari, kasalligi yoki boshqa xususiyatlariga qarab shaxsga nisbatan xurofot yoki kamsituvchi munosabatni o'z ichiga olgan holatga duch kelishi mumkin. Diskriminatsiya turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkin: haqoratli va kamsituvchi bayonotlar, izohlar, hazillar, laqablar va ism-shariflar, o'yinlar va mashg'ulotlardan chetlatish, shuningdek, noaniq, tengsiz munosabat orqali aniq va ochiq ifoda etiladi. Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan har bir o'quvchi zudlik bilan o'zi yoki sinfdoshlari orqali zo'ravonlik holati xaqida sinf rahbari, navbatchi o'quvchi, qo'riqchi yoki muassasaning boshqa hodimlariga og'zaki yoki (telefon orqali) habar beradi. Zo'ravonlik holati xaqida habardor bo'lgan ta'lim muassasa hodimi tezlik bilan maktab direktorini habardor qiladi. Ta'lim muassasasining direktori tazyiq va zo'ravonlik holatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish, holat ishtrokchilarini aniqlash, belgilangan tartibda zo'ravonlik holatlarini sodir etgan shaxslar (pedagog yoki o'quvchi)ning ota-onasi bilan alohida tartibda gaplashishi, jabrlanuvchining ota-onasiga telefon orqali ta'lim muassasasidagi holat xaqida xabardor qiladi.

Yozma: Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan har bir o'quvchi zudlik bilan o'zi yoki sinfdoshlari orqali muassasa hodimlariga yoki psixologga yozma habar beradi.

Ta'lim muassasasining direktori tazyiq va zo'ravonlik holatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish, holat ishtrokchilarini aniqlash, belgilangan tartibda tazyiq va zo'ravonlik holatlarini sodir etgan shaxslarining ota-onasi bilan alohida tartibda gaplashishi, jabrlanuvchini ota-onasiga telefon orqali ta'lim muassasasi holati xaqida xabardor qiladi. Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi va psixologlar agressiv xulqni "yomon" xulq bilan taqqoslamasliklari kerak. Chunki o'smirlarda og'ir, xavfli vaziyat paydo bo'lganida "agressivlik" himoya vazifasini, ba'zida esa vaziyatni bartaraf etuvchi omil vazifasini ham bajaradi. Agressiv xulq, ayniksa, bolada yoshga xos bo'lgan o'tish davrida ko'proq ko'zga tashlanadi. Bu shundan dalolat beradiki, o'tish davrida bola har kanday murakkab vaziyatda qiyinchilikni his qiladi va shu sababli unda agressiv xulqning unsurlarini ko'rishingiz mumkin. Ushbu holat bu

davrni boshdan kechirayotgan barcha o'quvchilarga birdek tegishli. Bolaning hissiy olamida buzilish bo'lganida agressiyaga tushish u uchun oddiy xodisaga aylanadi. Xatto xulk-atvorida zo'ravonlikga moyillik xususiyatlari yuzaga kela bolaydi. Birok, bola xulqida agressivlik va zo'ravonlikni paydo bo'lishi ular bilan o'zaro munosabat qilishda qiyinchilik tug'diradi.

Bunday vaziyatlarda ota-onalar bolalariga nisbatan fikrlarini ijobiy tarafga o'zgartirishlari kerak bo'ladi. Ular farzandlarini agressiv holatda tushib qolganida noshud deb qaramasdan ularni tushunishga harakat qilishlari lozim. Oilada ota-onalari bilan kelishmay qolgan muammoli vaziyatlarda bolalar o'z xissiyotlariga javoban kattalardan o'z aybini his qilib, kechirim so'rashlarini va ularni tinchlantirishlarini kutadi. Agressiv bola xar doim o'zini baxtsiz bola deb xisoblaydi, shuning uchun har doim ota-onada bolaga nisbatan raxmli bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sodiqov B "Deviant xulqli o'quvchilar psixologiyasi", Termiz 2010 yil
2. Yadgarova G.T "Tarbiyasi qiyin guruhga mansub o'quvchilar bilan ishlash", uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
3. G'oziev E "Psixologiya" Toshkent, "O'qituvchi", 1996 yil.
4. G'oziev E.Ontogenez psixologiyasi. T.,2010.
5. Jalilova S.,Aripova S. Maktabgacha tarbiya yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi. T., 2013.
6. MuxamedovG.,Xodjamqulov U.Pedagoik ta'lim innovasion klasteri: tavsif,tasnif.- Chirchiq.,2019.